

**Lesya Ukrainaning shoh asari – “O‘rmon qo‘shig‘i” dramatik poemasi  
Sirojiddin Rauf tarjimasida**

**R. Zaripova, O‘DJTU mustaqil izlanuvchi**

**Annotatsiya.** Respublikada xizmat ko‘rsatgan jurnalist Ra‘no Zaripovanning ushbu ilmiy maqolasida ukrain xalqining sevimli shoirasi Lesya Ukrainka ijodiy faoliyati va o‘ziga xos uslubi va tarjimonning asliyatni anglash va anglatish usuli tahlil etilgan. Muallif va mutarjim mahorati qiyosiy tahlillarda o‘z ifodasini topgan.

Shuningdek, ushbu maqolada o‘zbek olimi, tarjimashunos G‘aybulla Salomovning «Tarjima nazariyasi asoslari» nomli ilmiy asarida keltirilgan fikr mulohazalariga, badiiy tarjimada muallif va tarjimon uslubi masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijod, uslub, tarjima, mutarjim, anglash, anglatish, tahlil, usul.

Ukrain xalqining mashhur ijodkori Ivan Franko Lesya Ukrainka haqida shunday degan edi: “Shevchenkoning “Ko‘ming-u, qo‘zg‘ang isyon, kishanlar chil-chil bo‘lsin!” deganidan buyon Ukrainada ana shu zaif, bemor qizning tilidagidek qudratli, otashnafas, shoirona so‘zlar eshitilmagan edi”<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, Ivan Franko ta'kidlaganidek, Lesya Ukrainka go‘zal, erkparvar, ozodlikka chorlovchi asarlari bilan faqatgina ukrain adabiyotida emas, balki butun jahon adabiyotidan munosib o‘rin olgan ijodkor. Shoira o‘z asarlarida Ukrainaning keng dalalarini, tabiatini, oddiy mehnatkash xalqini to‘lib toshib kuyladi. Shuning bilan birga uning asarlarida o‘zi sayohatga borgan, ma‘lum muddat yashagan italyan, nemis xalqining, jumladan ishchilarining xaroba kulbalarini, Misr dehqonlarining zahmatli hayotini, buyuk tarixini ko‘ramiz. U xalqlarning birligida, ahilligida, tinchligida katta haqiqat, ezgulik borligiga ishondi. Barcha xalqlarning dardini o‘zinikidek bila oldi. U butun hayotiga, ijodiga ana shu qadriyatlarni, ohanglarni singirdi.

Shoiraning asarlari o‘zi hayotligidayoq jahon tillarida yangray boshlagandi. Germaniyada shoiraning shoh asari “O‘rmon qo‘shig‘i” alohida kitob bo‘lib chiqdi. Nemis adabiyotshunoslari bu asarni “xalqchillikning yorqin timsoli”<sup>2</sup> deb baholashdi. Shoira vafotining 40 yilligida chex adabiyotshunosi Irji Bubla “O‘rmon qo‘shig‘i” asarini “slavyan adabiyotining eng go‘zal namunasi”<sup>3</sup> deb baholadi.

<sup>1</sup>.Зарипова Р. Таржима санъати таржимон маҳорати (Леся Украинка ва Олесь Гончар асарлари таржимаси тадқиқоти).– Т.: Тафаккур қаноти., 2021. – 12 б.

<sup>2</sup>П.П. Охрименко и О.Г. Охрименко “Леся Украинка и мировая культура”, Москва -1970г. 32 бет.

<sup>3</sup>П.П. Охрименко и О.Г. Охрименко “Леся Украинка и мировая культура”, Москва -1970г. 33 бет.

1971 yilda YUNESKONing qaroriga muvofiq, jahon jamoatchiligi shoira, dramaturg va adabiyotshunos olima Lesya Ukrainka tugʻilgan kunning 100 yilligi Moskvada nishonlandi. Shu munosabat bilan shoiraning koʻplab asarlari oʻzbek adabiyotiga ham kirib keldi.

Tarjimon Sirojiddin Rauf tomonidan keyingi paytda oʻzbek kitobxonlariga tanishtirilgan “Oʻrmon qoʻshigʻi” nomli shoh asarida adiba oʻzi tugʻilib oʻsgan Volinning goʻzal tabiatini yorqin misollarda koʻz oldingizda gavdalantiradi. Drama tabiat goʻzalligini kuylashga bagʻishlangandek boʻlib tuyuladi. Asarni oʻqiy boshlashingiz bilan yilning toʻrt faslida roʻy beradigan ajoyib manzaralar va hodisalar birma-bir koʻz oldingizda namoyon boʻladi. Ona tabiatning boy nafosati, rangin boʻyoqlari yanada ham yorqinroq, jozibaliroq tuyuladi.

Shoira tabiatning fusunkor manzaralari orqali ramziy obrazlarda katta ijtimoiy-siyosiy hodisalarni sanʼatkorona “chizib beradi”. Ikki ijtimoiy kuch – haq va haqsizlik, erk va istibdod, adolat va adolatsizlik kurashi haqqoniy tasvirlanadi.

Dramaning markaziy obrazi – afsonaviy oʻrmon parisi Mavka. Asliyatda Mavka goʻzallikning, yaxshilikning falsafiy umumlashma obrazi. Qishloq yigiti Lukashning sozandaligini va odamiyligini sezib, sevib qoladi. Lukash ham uni sevadi. Mavka oʻzining afsonaviy oʻrmonini tashlaydida odamlar orasiga keladi. Ammo, ishq taronasi boshqa olam, dehqonlarning mashaqqatli turmushi boshqa olam. Mavka Lukashning uyida achchiq qismatni tuyadi, erksizlikni koʻradi. Bu huquqsizlik uning nozik qalbini ezadi. Lukashni Kilinaga uylantirishmoqchi boʻlganliklaridan xabar topgach, u butunlay umidsizlanadi. Dunyodan koʻz yumishni istaydi. Mavka oʻlishi mumkin emas, chunki u abadiy sevgi, erk, adolat timsoli! Bu sof muqaddas tuygʻular esa oʻlmasdir. Kilina Mavkani sehrlab majnuntolga aylantirib tashlaydi. Mavka goh yaproq boʻlib shivirlaydi, goh nay singari nola qiladi. Lukashning tushlariga kiradi, xayolidan bir dam koʻtarilmaydi. Lukash Mavka sevgisiga munosib emas. U moddiy taʼminotlar – mol-mulk, tengsizlik hukmron boʻlgan sharoitning quli, u uylangan Kilina ham shu sharoitning farzandi.

Dramaning oxiri qaygʻuli yakunlanadi. Tabiatning yaratuvchilik kuchini sezuvchi, uni sevuvchi donishmandlik timsoli Lev bobo ham oʻladi. Mavka Lukashni yoʻqotgach yashashdan voz kechadi. Lukashning oʻrmondagi kulbasi yonib kul boʻladi. Oʻzi butun erkini, fikrini yoʻqotadi. U oʻlimga mahkum. Biroq, hayot abadiy degan gʻoya asar mazmuniga chuqur singdirib yuborilgan. Asarda realistik tasvir bilan fantastik tasvir bir-biriga uygʻunlashib ketgan. Tarjimada ham ushbu mazmun-mohiyat aks etgan.

Tarjimashunos olim G'. Salomov<sup>4</sup> tarjimada uslubni saqlash borasida muallifning shaxsiy uslubi uning asarlarini boshqa mualliflarning shunga o'xshash asarlaridan farqlab turuvchi asosiy belgi ekanligi, shu sababli, badiiy tarjimaning zimmasidagi asosiy mas'uliyat muallif uslubini saqlab qolish ekanligi, nafaqat muallif uslubiga, balki asarda aks etgan davrning "sadosi"ga va milliy muhitni namoyon etuvchi ma'nolarga e'tibor berish kerakligini ta'kidlaydi. Olim rus tadqiqotchilaridan farqli o'laroq, tarjimada muallif uslubini yetkazib berishda bir yoqlamalikdan qochish, faqat grammatik, leksik, yoki shu kabi boshqa bir alohida jihatlarni ajratgan holda emas, aksincha barcha aspektlarni hisobga olib ish ko'rish lozimligini ta'kidlaydi. Tarjimada «muvofiq uslub kalitini topish asarning yozilish uslubi bilan g'oyasi hamda muallif dunyoqarashi o'rtasidagi bog'lanishni to'g'ri belgilash, marom, ohang, sintaktik tarz va obrazlar silsilasiga xos xususiyatlarni to'g'ri tayin qila bilishga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Tarjimon Sirojiddin Rauf ham adibaning "O'rmon qo'shig'i" nomli shoh asarida asliyatning mazmun-mohiyatiga xos shaklni bera olgan. Sahna tasvirlari, izohlar nasriy, diologlar asliyatdagidek oq she'r shaklida o'girilgan.

Mifologik asarning leksik qatlamini ifodalashda tarjimon uslubi ham o'ziga xos. Asliyatlarda ibora, maqol, matallar umuman ishlatilmagan bo'lsa-da, kompozitsiyasi va formasining murakkabligi, qolaversa, o'zbek xalqiga notanish bo'lgan slavyan xalqiga xos asotirlar mo'l-ko'l ishlatilganligi tarjima jarayonini qiyinlashtiradi. Slavyan xalq og'zaki ijodida, xalq tilida ishlatiladigan etnik so'zlar, mifologik nomlar, obrazlarni anglash va anglatish oson emas. Chunki, o'zbek xalq og'zaki ijodida ishlatilmaydigan ko'plab mifologik obrazlar bo'lib, shoir va tarjimon Sirojiddin Rauf ushbu arxaik so'zlarni juda tushinarli izohli o'g'irgan. Masalan, asliyatda –Tot, kto plotina rvet<sup>5</sup> – deya nomlangan asar qahramoni bor. Uni To'g'onbuzar<sup>6</sup> deya bitta so'z bilan o'g'irgan. Poterchata<sup>7</sup> nomli drama qatnashchisi bor. Uni Boginka<sup>8</sup> deya o'g'irgan. Asliyatda ularga izoh yo'q. Biroq, mutarjim dramaning birinchi betida mifologik obrazlarga izoh berib ketadi. Mavka, Poterchata, Perelesnik, Kuts, Zlyden kabi slavyan xalqlari mifologiyasidagi afsonaviy adabiy qiyofalar ekanligini va ushbu qiyofalarning mohiyatini o'zining tarjimasida tushintiradi. Holbuki, asliyatda ushbu obraz haqida izohlar mavjud emas, bunga sabab albatta, slavyan asotirlaridagi qiyofalar ularga

<sup>4</sup> Саломов Г. Таржима назарияси асослари. – Т.: "Адабиёт ва санъат", 1983. – Б. 38.

<sup>5</sup>Украинка Леся, *Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 183 с.*

<sup>6</sup>Украинка Леся, "Тонг отмоқда", "Mashur press" нашриёти, Т, 2019 йил. 152 б.

<sup>7</sup>Украинка Леся, *Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 183 с.*

<sup>8</sup>Украинка Леся, "Тонг отмоқда", "Mashur press" нашриёти, Т, 2019 йил. 152 б.

tushunarli bo'lganligidir. O'zbek milliy adabiyotida esa bu so'zlarning mohiyatini oddiy kitobxonga tushintirish kerak bo'ladi. Masalan, asarning bosh obrazi Mavka slavyan mifologiyasidagi afsonaviy qiz. "Tanasining orqa tomoni yo'q, shu bois ichki a'zolari ko'rinib turadi. Odatda asotirlarda Mavka alamzada mavjudot sifatida tasvirlangan, u o'zining bevaqt o'limi uchun o'ch olish maqsadida uchragan odamni avrab o'ziga maftun qiladi, keyin esa o'ldiradi<sup>9</sup>. Lesya Ukrainka asarida esa bu qiyofa o'rmon ruhi, hatto o'rmonning qalbi, ezgulik timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Boginka qiyofasini olaylik, slavyan asotirlarida u cho'qintirilmay turib o'lgan bolaning darbadar ruhi bo'lib, uchqun ko'rinishida namoyon bo'ladi. U odamlarni adashtirib botqoqlikka boshlab borib g'arq qiladi<sup>10</sup>. U shoira dramasida ham aynan ushbu qiyofada ishtirok etadi. O'zbek mifologiyasida bunday obraz yo'q. Shuning uchun uni boginka deya o'g'irgani ma'qul muqobil bo'lgan.

Perelesnik<sup>11</sup> qiyofasi ukrain afsonalarida odamlarga dunyodan o'tgan qarindoshi qiyofasida ko'rinuvchi jin sifatida talqin qilinadi. Ushbu jin odam tanasiga kirib olib, ayollar bilan yaqinlashishi, hatto farzand ko'rishi ham mumkin. Izoh berib ketib aynan asliyatdagi nomni olganligi mantiqan to'g'ri tarjima bo'lgan. Chunki, o'zbek milliy mifologiyasida bunday obraz yo'q.

Kuts<sup>12</sup> afsonaviy obraziga tarjimon shunday izoh beradi: ukraincha kutsiy-dumsiz, beloruscha – jin, polyakcha – dumi kesilgan hayvon degan so'zlardan kelib chiqqan, deya taxmin qilinadi. Bu jin dumsiz bo'lib, botqoqqa tushgan odamlarni halok qilish bilan shug'ullanadi. Asliyatda ham muallif uni xuddi shu ma'noda ishlatadi.

Zliden<sup>13</sup> slavyan asotirlarida yovuz jinlarni shu nom bilan atashgan. Bu nom ko'p ma'noli zlyden so'zidan yasalgan bo'lib yovuz, dangasa, baxtsiz odam, gado degan ma'nolarni bildiradi. Ko'plikda ishlatilganda esa bu so'z baxtsiz qismat ma'nosida keladi.

Bu mifologik obrazlarning atalishini mutarjim asliyatdagidek qoldirgan. Tarjimada ham asliyatdagidek nomlagan. Ba'zi afsonaviy obrazlarning nomini o'g'irgan. Masalan, suv parisi<sup>14</sup> – rusalka<sup>15</sup>. Ushbu afsonaviy obraz o'zbek xalqi

<sup>9</sup>Украинка Леся, "Тонг отмоқда", "Mashur press" нашриёти, Т, 2019 йил. 152 б.

<sup>10</sup>Украинка Леся, "Тонг отмоқда", "Mashur press" нашриёти, Т, 2019 йил. 152 б.

<sup>11</sup>Украинка Леся, "Тонг отмоқда", "Mashur press" нашриёти, Т, 2019 йил. 152 б.

<sup>12</sup>Украинка Леся, "Тонг отмоқда", "Mashur press" нашриёти, Т, 2019 йил. 152 б.

<sup>13</sup>Украинка Леся, "Тонг отмоқда", "Mashur press" нашриёти, Т, 2019 йил. 153 б.

<sup>14</sup>Украинка Леся, "Тонг отмоқда", "Mashur press" нашриёти, Т, 2019 йил. 152 б.

<sup>15</sup>Украинка Леся, *Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 183 с.*



ertaklarida, afsonalarida ishlatiladi. Vodyanoy<sup>16</sup>-suv ajinasi<sup>17</sup> deb o'giradi. Chunki ushbu so'z turkiy afsonalarda ham ishlatiladi. Masalan, ko'l bo'yiga, suv bo'yiga kechasi yaqinlashma, suv ajinasi tortib ketadi deya bolalarni qo'rqitib ehtiyotlashardi buvilar. Leshey<sup>18</sup> –O'rmonlik<sup>19</sup> deya o'giradi. Leshey (Ruscha o'zbekcha lug'atda leshey- alvasti, dev). Asliyatda esa u o'rmon hukmdori sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun uni o'rmonlik deya mantiqan to'g'ri o'giradi. Asliyatda "Polevaya rusalka"<sup>20</sup> afsonaviy obrazi mavjud, uni "Dala parisi"<sup>21</sup> deya o'giradi. Asliyatda: Tot, kto v skale sidit<sup>22</sup> -mifologik obrazini – Cho'qqida o'tiruvchi<sup>23</sup> deya aynan o'giradi. Bu esa asliyatning mazmun- mohiyatiga mos keladi.

Tarjimon mifologik obrazlarni nomini o'girishda to'rtta usulni tanlaydi. Mazmun-mohiyati o'zbek milliy qadriyatlariga to'g'ri kelsa aynan o'giradi. Ikkinchi usuli, asliyatdagi obrazning nomini aynan berib, asliyatda qanday ma'noda kelganligini izohlaydi. Uchinchi usuli esa muqobilini qo'llaydi. Tarjimonning yana bir uslubi mavjud. Mifologik obrazlarning slavyan xalqi asoratlarida qanday ma'noda ishlatilganini ham tushintirib ketadi. Asliyatda bu izoh yo'q. Bular esa asliyatning mazmun- mohiyatini to'la-to'kis ochib berishga xizmat qiladi.

"Lesnaya pesnya" dramasida shunday she'riy satrlar mavjud:

I net u nas zashchity,

Ved my otsom zabyty<sup>24</sup>.

Mutarjim Sirojiddin Rauf ushbu she'riy satrlarni shunday o'giradi:

Biz otasiz bolalarmiz,

Bunda g'arib lolalarmiz<sup>25</sup>.

Aynan adekvat tarjima emas. Biroq, mutarjim Sirojiddin Rauf cho'qintirilmasdan avval o'lib ketgan Boginkalar gapini go'zal sifatlash orqali ularning ruhiyatini ochib beryapti. Lolalar ham go'zal bo'lib ochiladi-yu, tezda so'ladi. Boginkalarni lolalarga o'xshatilishi topib ishlatilgan qiyosiy izohdir.

Mutarjim milliy kiyimlarni tarjima qilishda qanday usulni qo'llaydi? Ukrainlarning milliy kiyimini aynan o'zini oladi, biroq, izoh berib ketadi. Sahna

<sup>16</sup>Украинка Леся, *Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 183 с.*

<sup>17</sup>Украинка Леся, "Тонг отмоқда", "Mashur press" нашриёти, Т, 2019 йил. 152 б.

<sup>18</sup>Украинка Леся, *Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 194 с.*

<sup>19</sup>Украинка Леся, "Тонг отмоқда", "Mashur press" нашриёти, Т, 2019 йил. 167 б.

<sup>20</sup>Украинка Леся, *Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 235 с.*

<sup>21</sup>Украинка Леся, "Тонг отмоқда", "Mashur press" нашриёти, Т, 2019 йил. 153 б.

<sup>22</sup>Украинка Леся, *Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 251 с.*

<sup>23</sup>Украинка Леся, "Тонг отмоқда", "Mashur press" нашриёти, Т, 2019 йил. 251 б.

<sup>24</sup>Украинка Леся, *Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 185 с.*

<sup>25</sup>Украинка Леся, "Тонг отмоқда", "Mashur press" нашриёти, Т, 2019 йил. 152 б.

ko‘rinishida ishlatilayotgan ushbu gapda milliy kiyimni aynan o‘zini olib, uni izohlab ketishi ma’qul uslub, albatta.

Shuningdek, asar qahramonlarining xususiyatlarini ochib berishda ham izohli o‘giradi. Mavka bilan Lukashni tanishuv tasviriga e’tibor bersak. Bu yerda o‘rmonga qo‘shimcha ruhi so‘zini tashqaridan kiritib, muallifning uslubini va Mavka obrazidan nima maqsadda asarda foydalanganini yaqqol aks ettiradi.

**Asliyatda:** A ya lesnaya Mavka<sup>26</sup>.

**Tarjimada:** Men o‘rmon ruhi – Mavka bo‘laman<sup>27</sup>.

Lukash bilan Mavkaning keyingi suhbatida mutarjim Mavka obraziga yanada aniqlik kiritadi. Mavka so‘zini pari deya o‘giradi. Slavyanlar Mavkaning nomidanok pariligini bilishadi. O‘zbek kitobxonlari esa Mavka – pari ekanligini tushunmasligi mumkin. Shuning uchun yanada aniqlashtirib o‘girgani maqsadni anglatib turibdi.

**Asliyatda:** А, vot ты кто! От рожи́ых лу́дей

Pro mavok ya slыxal, no sam ni razu

Ne videl ix<sup>28</sup>.

**Tarjimada:** Mana kim ekansan! Chollardan ko‘p bor

Parilar haqida eshitgan edim,

Ko‘rmagandim lekin umrimda<sup>29</sup>.

Tarjimon asliyatning mazmuni, obrazlari, uslubini to‘g‘ri aks ettirish bilan birga undagi vazn, qofiya, ritmni aniq bera olgan. Asliyatning sehrini, ruhini, jozibasini, ohangini saqlay olgan.

Umuman, Lesya Ukrainka dramalarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishi adabiyotimiz hazinasiga, tarjimachiligimiz ravnaqiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Mirziyoev.Sh.M. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni – Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral, №28.

2.Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir, O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruza, Xalq so‘zi, 2017 yil 4 avgust,

<sup>26</sup>Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 198 с.

<sup>27</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашриёти, Т, 2019 йил. 172 б.

<sup>28</sup>Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 198 с.

<sup>29</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашриёти, Т, 2019 йил. 172 б.

3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2018 yil. Abdurahmon Jomiyning “Muhabbat maxzani” kitobiga yozilgan so‘zboshi, 333-339 betlar.

4. Aznaurova R. “Tarjima san’ati” kitobi, “Badiiy tarjimalarning asosiy problemalari” maqolasi, 12 bet. O‘zSSR Davlat nashriyoti, 1961 yil.

5. Anatol Kostenko. Lesya Ukrainka, izd. Molodaya gvardiya 1971, Jizn zamechatelnyx lyudey

6. Vinogradov V.V. – Leksicheskie voprosy perevoda xudojestvennoy prozy: Avto-ref. Diss. ... dokt. Filol.nauk, 1975g.66s.

7. Deych A. I. , Lesya Ukrainka. Moskva. Goslitizdat, 1954, 174 s.

8. Zaripova R– Tarjima san’ati va tarjimon mahorati, Toshkent: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2021y, 132 bet.

9. Oxrimenko P.P.i O.G. Oxrimenko. Lesya Ukrainka i mirovaya kultura. Moskva -1970g. 32 bet.

10. Rashidov Asil, Lesya Ukrainka, (adabiy portret), Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972 yil, 53 bet.

11. Salomov G‘aybulla, Tarjima nazariyasi asoslari, Toshkent, O‘qituvchi nashriyoti, 1983 yil.

12. Tixonov Nikolay, Moskva, “Literaturnaya gazeta”, ”Velikaya doch Ukraini” maqolasi 1971 y, 5 mart, 1-bet.

13. Ukrainka Lesya “Tong otmoqda”, T. “Mashhur press” nashriyoti, 2019 yil.

14. Ukrainka Lesya “Tanlangan asarlari”, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1971 yil.

15. Ukrainka Lesya, Bolshaya sovetskaya ensiklopediya 30 tom, 3-ye izd. Moskva, Sovetskaya ensiklopediya, 1969—1978.

16. Ukrainka Lesya, Sobranie sochineniy: V 3 t.: Per. s ukr. Moskva: Goslitizdat, 1950.

17. Ukrainka Lesya, Sobranie sochineniy: V 4 t.: Per. s ukr. Moskva: Goslitizdat, 1956.

18. Quronov D, Mamajonov Z, Sheralieva M – Adabiyotshunoslik lug‘ati. T: Akademnashr, 2013 y, 406 bet.

19. Ojegov S.I. – Tolkoviy slovar russkogo yazika. Izd. 25-ye ispr i dop Pod red L.I. Skvorsova – M.: 2006.

20. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – T: Universitet. 1992y. Z78b.